

004.9.
G 57

6284

U.G.GOYIPOV

MALAKAVIY AMALIYOT



Kitob quyida ko`rsatilgan muddatda
topshirilishi shart

004.5
G 57


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH
INSTITUITI

Goyipov Umidjon Gulomjonovich

MALAKAVIY AMALIYOT

60610200 - Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va
sohalar bo'yicha) yo'nalishi talabalari uchun

O'QUV QO'LLANMA



«Iste'dod ziyo press» nashriyoti
Namangan
2024

UO'K: 821-512-133-9
KBK: 84(O'zb)7
G-11

**Goyipov U.G. Malakaviy amallyot: O'quv qo'llanma – N.:
“Iste'dod ziyo press” nashriyoti, 2024 – 260 b.**

Taqrizchilar: Sh.Boltibayev – NamDU, Informatika va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti, PhD.

S.Komilov – NamMQI, Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi mudiri, PhD

Ushbu o'quv qo'llanma 60610200 - Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'naliishi talabalarining malakaviy amaliyot o'tashlari uchun zarur bo'lgan barcha yo'rqnomalarni, kurslarda o'tkaziladigan malakaviy amaliyotlarning maqsad-vazifalari, mazmuni, amaliyotchilarga beriladigan topshiriqlar, baholash tartibi va mezonlari hamda hisobotga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olgan.

O'quv qo'llanmadan malakaviy amaliyotga chiqarilgan yoki malakaviy faoliyat yuritish bo'sag'asida turgan talabalar, amaliyot bilan bog'liq faoliyatdagি barcha professor-o'qituvchilar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9910-9735-0-5

© «Iste'dod ziyo press” nashriyoti, 2024

© Goyipov U.G, 2024

Kirish

Talabalarda kasbiy bilim va malakalarni shakllantirish samaradorligi ko'p jihatdan ularning nazariy va amaliy tayyorgarligi bilan bog'liq. O'quv rejasida mayjud nazariya va amaliyot birligini ta'minlash maqsadida bo'lg'usi mutaxassislat uchun malakaviy amaliyot o'tash mo'ljallangan.

Malakaviy amaliyot talabalar uchun kasbiy tayyorgarlikning zaruriy sharti bo'lib, o'quv rejasiga mos ravishda o'tkaziladi. Uning asosiy maqsadi talabalarda chuqur nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lgan to'laqonli mutaxassis bo'lish hissini uyg'otish imkonini yaratish va kelgusida kasbiy bilim va mahoratni rivojlantirishdan iboratdir. Bu amaliyot talabaga Oliy dargohda olingen barcha bilimlar va malakalarni amaliy, yoxud ishlab chiqarish faoliyatini davomida tahlil etishlariga yordam berishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar mutaxasisliklari bo'yicha malakali ixtisoslik malakasini olish uchun shu ixtisoslik bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak. Talabalarda bu ko'nikma va malakalar o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari davrida shakllantiriladi.

Ko'nikma – insонning o'zidagi bilimlarga asoslanib, ma'lum talablarga rioya qilgan holda mehnat jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyatidir.

Malaka – insонning o'zidagi bilimlar va ko'nikmalarga asoslangan holda mehnat jarayonlarini yuqori unumdonorlikda amalga oshirish qobiliyat bo'lib, bunda harakattlar avtomatik tarzda bajariladi.

Malakaviy amaliyotlar – umumkasbiy yoki ixtisoslik fanlardan o'rganilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash, ish usul va operatsiyalarini amaliy bajarib o'rganish bo'yicha ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish maqsadida dastur asosida, amaliyot taxbari nazorati ostida o'quv ustaxona, laboratoriya va ishlab chiqarish korxonalarida amalga oshiriladi.

Malakaviy amaliyot amaliy mashg'ulotning qulay shakli bo'lib, ishlab chiqarishdagi amaliyot taxbari nazorati ostida ma'lum rejimda va didaktik maq-sadli mashqlar tizimini amalga osbirish orqali bajariladi.

Mazkur o'quv qo'llanmada malakaviy amaliyotini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar hamda "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari", "Ma'lumotlar bazasi va dasturlash texnologiyasi", "Web dasturlash aseslari" va boshqa mutaxassislik fanlari bo'yicha olingen nazariy bilimlarini bevosita ish joylarida amaliy mustaxkamlash uchun zarur ko'rsatmalar va ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari ishlab chiqarish, ularning samarali ishlashit va mehnat intizomi bilan tanishtirish masalalari yoritilgan. Ishlab chiqarish korxonalarida amaliyotni tashkil etish "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari", "Ma'lumotlar bazasi va dasturlash texnologiyasi" va "Web dasturlash asoslari" fanlari topshiriqlarini bajarish metodikasi misolida bayon etiladi.

O'quv qo'llanma beshta bobdan iborat bo'lib, 1 bobda malakaviy amaliyot, uni tashkil etish va o'tash bosqichlari bo'yicha tashkiliy-metodik ma'lumotlar keltirilgan. II, III, IV va V - boblarda har bir kurs bo'yicha malakaviy amaliyotni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar, nazariy ma'lumotlar, uslubiy ko'rsatmalar, topshiriqlar va ularni bajarish namunalari hamda har bir bob bo'yicha individual topshiriqlar keltirilgan.

I BOB. MALAKAVIY AMALIYOT, UNI TASHKIL ETISH VA O'TASH

BOSQICHLARI

1.1. Umumiy qoidalar

Oliy ta'lim muassasalaridagi malakaviy amaliyotlar Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2022-yil 13-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarini talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 202-sonli buyrug'iga va shu buyruqqa asosan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarini talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizom"ga asosan tashkil etiladi. Ushbu namunaviy hujjatga ko'ra quyidagi tushunchalar izohlanadi:

malaka amaliyoti – o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va o'quv hosil qilish, o'quv rejalarini va fanlar dasturlarning ma'lum mavzulari bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan amaliyot turidir;

Malaka amaliyoti o'quv, ishlab chiqarish, pedagogik va bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) oldi amaliyotlari turlariga bo'linadi.

qabul qiluvchi tashkilot – talabalar malaka amaliyotini o'tashi uchun OTM bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzgan, malaka amaliyoti reja-jadvali va dasturlarini to'la hajmda bajarishni ta'minlash uchun barcha shart-sharoitlar mayjud bo'lgan zamonaviy korxona, tashkilot, idora, muassasa, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, savdo, qishloq xo'jaligi, davlat hokimiyati va boshqaruv organi, ishlab chiqarish, xo'jalik, tijorat tashkilotlari, moliya-bank muassasalarini, qurilish ob'ektlari, firmalar, fermer xo'jaliklari, OTM bo'limlari va boshqa tashkilotlar;

OTMdan malaka amaliyoti rabbari – o'quv yuklamasiga malaka amaliyoti kiritilgan OTMning tegishli kafedrasi professor-o'qituvchisi;

qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari – talabalarga malaka amaliyoti davomida ularni texnik xavfsizlik qoidalari bilan tanishtiruvchi, amaliy ko'nikma va malakalarini o'rgatuvchi va OTMdan malaka amaliyoti rahbari bilan birgalikda amaliyot davrida talaba egallagan ko'nikmalarni baholash mas'uliyati yuklangan qabul qiluvchi tashkilot xodimi.

o'quv amaliyoti – tanishtiruv, ekskursion, dialektologik, o'lkashunoslik, etnografik, arxivshunoslik, arxeologik, dala va h.k. shakkarda o'tkazilib, talabalarni bo'lajak mutaxassislikning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha dastlabki kasb ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishdan iborat. O'quv amaliyoti ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) xususiyatidan kelib chiqib, asosan 1-va 2-kurslarda tashkil etiladi;

ishlah chiqarish amaliyoti - texnologik, konstrukturlik, fotometrik, davolash va h.k. shakkarda o'tkazilib, talabalar tomonidan muayyan maxsus fanlar turkumini o'rGANISH jarayonida olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, bevosita korxona, muassasa, tashkilotda ishlab chiqarish jarayoni va uning texnologiyalari bilan tanishtirish, mutaxassislik bo'yicha ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish uchun materiallarni yig'ish, jarayonni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashdan iborat;

pedagogik amaliyot - ta'lim turlari uchun yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash ishining ajralmas qismi bo'lub, talabalarning pedagoglik kasbiga bo'lgan malakalarini va ko'nikmalari takomillashtib boradi. Talabalar pedagogik amaliyot davrida o'quv-tarbiya jarayonining barcha tomonlarini tahlil qiladi va bu amaliyot maktabgacha ta'lim, davlat va nodavlat umumta lim makteblari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarini va boshqa ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi;

bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) oldi amaliyoti ta'limning yakuniy bosqichi hisoblanadigan, talabalar tomonidan nazariy va amaliy o'quv dasturlari o'zlashtirilgandan so'ng bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi)ning mavzusi bo'yicha materiallar to'plashdan iborat.

Malaka amaliyoti ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) ishechi o'quv rejalariga muvofiq 2-kursdan boshlab tizimli ravishda OTM tomonidan ishlab chiqiladigan hamda qabul qiluvchi tashkilot bilan kelishib tasdiqlanadigan malaka amaliyoti dasturi asosida amalga oshiriladi.

Talabalar malaka amaliyotini o'tashlari majburiy hisoblanadi, malaka amaliyotini uzrli sabablarga ko'ra o'tay olmagan talabalar OTM rektorining buyrug'iga muvofiq belgilangan boshqa muddatda malaka amaliyotini o'tashi shart.

1.2. Malaka amaliyotini tashkil etish

Malaka amaliyoti OTMning qabul qiluvchi tashkilotlar bilan belgilangan tartibda tuzilgan shartnomalari asosida tashkil qilinadi. OTM va qabul qiluvchi tashkilot malaka amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha shartnomada shartnomaga predmeti, taraflarning huquq va majburiyatları, qabul qiluvchi tashkilotning ish faoliyati xususiyatlardan kelib ehtiqqan holda malaka amaliyotini tashkil etish tartibini, shartnomaning amal qilish muddatini, shartnomani bekor qilish asoslarini, shuningdek taraflarning javobgarligini kelishib oladi.

Talabalarning malaka amaliyoti reja-jadvali (yoki taqvimli reja) va dasturlarini to'liq bajarilishiga kafedra mudiri va Institutdan malaka amaliyoti rahbari javobgar hisoblanadi.

Talaba amaliyotga jo'natilishidan oldin institutdan *Amaliyot yo'llanmasi* (1- ilova) beriladi. Yo'llanmada talabaning institutdan qabul qiluvchi tashkilotga yo'llanayotganligini, ya'ni yuborilayotganligini ko'rsatuvchi asos hisoblanadi. Yo'llanma tashkilotda qoladi.

Shu bilan birga talabaga institutdan *Guvohnoma* (2-ilova) ham beriladi. Guvohnoma talabaning kelib-ketishini belgilash uchun kerak bo'ladi. Ya'ni, guvohnomada talabaning institutdan chiqib ketgan sanasi, amaliyotga kelgan sanasi, amaliyotdan ketgan sanasi va yana institutga kelgan sanasi ko'rsatilib, muhr bilan tasdiqlanadi. Guvohnoma amaliyot yakunlanganda asoslovchi xujjat sifatida hisobotga qo'shib tikiladi.

Amaliyotga jo'natilayotgan talabaning malaka amaliyoti bo'yicha *tagrimli rejası* (3-ilova) oldindan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Talabaning taqvimli ish rejasini shakllantirishda asosiy e'tiborni amaliyot o'taladigan korxonaning ish faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etishga (masalan, kompyuter dasturini yaratish va b.) qaratilishi maqsadga muvofiq. Bu orqali talaba ish tajribasi orttirish bilan birga korxona uchun foydali ishlarni amalga oshiradi.

Amaliyot o'tash davrida talaba kunlik bajaradigan ishlarni qayd etib borishi uchun *kundalik* (4-ilova) tutishi va to'ldirib borishi zarur bo'ladi.

Talaba amaliyot yakunlangandan keyin, ko'pi bilan 5 kun ichida malakaviy amaliyot bo'yicha *hisobot* tayyorlab Institutdan biriktirilgan rahbarga topshirishi kerak. Hisobotning namunaviy titul varag'i 5-ilova keltirilgan

1.3. OTMdan malaka amaliyoti rahbari vazifalari

OTMdan malaka amaliyoti rahbari vazifalari quyidagilardan iborat:

- malaka amaliyotini o'tash joylariga talabalarni taqsimlashda ishtirok etish;
- malaka amaliyotiga ketayotgan talabalarga oldindan malaka amaliyoti o'tkazish tartiblari, xavfsizlik texnikasi haqida zarur ko'rsatmalar va yo'l-yo'rqliq berish;
- zaruriyatga muvofiq qabul qiluvchi tashkilotga malaka amaliyoti boshlanishidan oldin borib, talabalat kelishiga zaruriy tayyorgarlik ishlarni tashkil etish;
- malaka amaliyotining butun davri uchun talabalarga malaka amaliyoti dasturi asosida reja-jadvalini tuzish, qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari bilan birqalikda ishning hajmi va tarkibini belgilash;
- talabalarni malaka amaliyoti reja-jadvali va dasturi hamda kundalik bilan ta'minlash;
- talabalarning malaka amaliyoti o'tash joyiga yetib borishi va qaytishini nazorat qilish;
- qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari bilan talabaning malaka amaliyotini o'tashi holati bo'yicha muntazam ravishda alegqada bo'lish;
- malaka amaliyoti muddatlariga rioya qilinishini, shuningdek malaka amaliyoti reja-jadvali va dasturi bajarilishini hamda kundalikni har kunlik to'ldirishini nazoratini olib horish, uslubiy yordam ko'rsatish ishlarni, zarur hollarda, talabalarning malaka amaliyoti o'tash joylariga borib ko'rish yo'li bilan amalga oshirish;
- talabalarning malaka amaliyoti hisobotini yozishga ko'rsatma va taysiyalar berish;

- talabalarning malaka amaliyoti bo'yicha hisobot himoyasida ishtirok etish va baholash;
- malaka amaliyotini o'tashni takomillashtirish yuzasidan zarur hollarda o'z taklif va mulohazalarini kafedra mudiriga (fakultet va OTM kengashida ko'rib chiqish uchun) taqdim etish.

1.4. Qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari vazifalari

Qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari vazifalari quyidagi lardan iborat:

- talabalarga hayot faoliyati va texnika xavfsizligi bo'yicha tushuntirish, shuningdek qabul qiluvchi tashkilotning ichki tartib qoidalari va ish rejimining xususiyatlari bo'yicha yo'l-yo'riq beradi;
- qabul qiluvchi tashkilotning belgilangan ob'ektlari bo'yicha talabalarni taqsimlaydi, ob'ektning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;
- amaliyotchi-talabalarga malaka amaliyoti dasturiga taalluqli materiallardan soydalanish tartib-qoidalarini o'rgatadi;
- talabalarga ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha maslahatlar beradi;
- yaqin atrofda joylashgan boshqa korxona, muassasa, tashkilotlarga birgalikda tashriflar o'tkazadi;
- malaka amaliyoti kundaligining yuritilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi;
- talaba ish kunining belgilangan davomiyligiga rioya etilishini nazorat qiladi;
- malaka amaliyoti kundaligiga talabaning ijobiy va salbiy fazilatlarini, uning o'zlashtirish darajasi va boshqa ma'lumotlarni yozuvchi yozuvlarni kiritadi;
- amaliyotchi-talabalar bilan tashkilot rahbarlari va yetakchi xodimlarning uehrashuvini hamda texnologik jarayonlarni takomillashtirish, ishlab chiqarishdag'i mavjud muammlarning yechimlarini izlash maqsadida seminar-treninglar tashkil etadi.

1.5. Talabaning malaka amaliyotini o'tash bo'yicha huquq va majburiyatlar

Talaba:

- malaka amaliyotini o'tash joyi, reja-jadvali, dasturi va tartibi bilan oldindan tauishish;
- malaka amaliyotini o'tkazish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirish;
- malaka amaliyotini o'tash yuzasidan zarur axborotlar olish;
- malaka amaliyoti bo'yicha uslubiy materiallar bilan tanishish hamda malaka amaliyoti rahbarlaridan yo'l-yo'riqlar olish huquqlariga ega.

Talabaga:

- malaka amaliyoti reja-jadvali va dasturida nazarda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, to'liq hajmda va sisatl bajarish;
- malaka amaliyoti kundaligini har kuni va tartibli yuritish;
- OTM va qabul qiluvchi tashkilotdan tayinlangan malaka amaliyoti rahbarlarining dasturda ko'zda tutilgan ishlarga **oid** barcha topshiriqlarini bajarish;
- hisobotga tegishli hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish;
- qabul qiluvchi tashkilot xodimlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar va ichki mehnat tartib-qoidalariiga rioya qilish **majburiyatlar** yuklatiladi.

Talaba malaka amaliyotini o'tagandan so'ng OTMdagi malaka amallyoti bo'yicha hisobotini belgilangan muddatda himoya qiladi.

1.6. Malaka amaliyotini o'tash bosqichlari

Malaka amaliyoti uch bosqichga bo'linadi:

- tayyorlov bosqichi;
- asosiy bosqich;
- yakuniy bosqich

Tayyorlov bosqichida malaka amaliyotini o'tashning birinchi kunida OTMdan malaka amaliyoti rahbari va qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari yig'ilish o'tkazadi. Yig'ilishda talabalar malaka amaliyoti reja-jadvali va dasturi bilan tanishadi. uning maqsadi, vazifalari va mazmuniga taalluqli ko'rsatmalar oladi, talaba tomonidan bajariladigan ishlar va ularni malaka amaliyoti kundaligida qayd etib borish tartiblari bilan tanishtiriladi.

Talabalar qabul qiluvchi tashkilotga yetib borgandan so'ng malaka amaliyotini o'tashning dastlabki kunlarida qabul qiluvchi tashkilotning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari, o'ziga xosligi bilan tanishadilar.

Malaka amaliyotini o'tashning asosiy bosqichida talaba bevosita qabul qiluvchi tashkilotda malaka amaliyoti reja-jadvalida ko'rsatib o'tilgan ishlarni bajaradi.

Malaka amaliyoti o'tashning yakuniy bosqiehida talabalar tomonidan malaka amaliyotini o'tash jarayonida qilingan ishlarning natijalari tahlil qilinadi va baholanadi.

1.7. Malaka amaliyotini yakunlash

Malaka amaliyoti yakunida talaba yozma ravishda malaka amaliyoti dasturi bo'yicha tayyorlagan hisobotni hamda uni qabul qiluvchi tashkilotdan tayinlangan rahbar imzolagan kundaligi bilan birga OTMdan tayinlangan rafibarga belgilangan muddatda topshiradi.

Talabaning malaka amaliyotini baholash jarayoni tegishli kafedralarda o'tkaziladi. Baholash jarayonida dekan, tegishli kafedra mudiri, e'quv-uslubiy boshqarma(bo'shim) vakili hamda qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari ishtiroy etishi mumkin.

Malaka amaliyoti natijasi bo'yicha baho talabaning kursdan kursga o'tishi va stipendiya belgilashda hisobga olinadi.

Malaka amaliyoti kurs uchun qo'llanilayotgan (100; 5) balli tizimda baholanadi. Malaka amaliyoti davrida talaba malaka amaliyoti dasturida ko'zda tutilgan baholash mezonlariga muvofiq joriy baholanishi va ushbu baholar hisobot

himoyasi bo'yicha baholanishida inobatga olinishi mumkin. 6-ilovada 100 balli reyting tizimi misolida namunaviy baholash kartasi keltirilgan.

Malaka amaliyoti yakunlari bo'yicha qoniqarsiz baho olgan yoki uzrli sabablersiz amaliyotga qatnashmag'an talaba akademik qarzor sifatida oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Malaka amaliyotini o'tash davrida talabaning uzrli sabablarga (kasal bo'shib qolishi, oilasi bilan bog'liq baxtsiz hodisalar va b.) ko'ra qatnashish imkoniyati bo'limgan holatlarda, talabaning malaka amaliyotini o'tash vaqtি OTM rektori buyrug'i bilan o'quv yili (semestr) davomidagi boshqa muddatga (odatda, ta'til davriga) ko'chirilishi mumkin.

Malaka amaliyoti yakuni OTM ilmiy-uslubiy kengashi (tegishli fakultet kengashi) da qabul qiluvchi tashkilotning vakillari ishtiroyida muhokama qilinadi.

II-BOB. O 'QUV-TANISHUV MALAKAVIY AMALIYOTI (1-kurs)

2.1. O'quv-tanishuv malakaviy amaliyotini tashkil etish

O'quv-tanishuv malakaviy amaliyoti talabalarini ish joylari bilan dastlabki tanishuvlarini tashkil etish va kurs davomida olingan nazariy bilimlarni bevosita ishlab chiqarish jarayonida mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Birinchi haftada xavfsizlik texnikasi bo'yicha ko'rsatmalar olish, ichki tartib qoidalar va korhona yoki tashkilot bilan tanishish va faoliyatini o'rghanish, amaliyot o'tash joyidagi mutaxassislar bilan yaqindan tanishish va korxona ichki tartib-qoidalarini o'rghanish, ularning lavozim majburiyatları va ish tartibini o'rghanib chiqish, AKT ga oid meyoriy hujjatlar bilan tanishish, korhona yoki tashkilot haqida umumiy ma'lumotlarni to'plash, rasmiylashtirish hamda o'ziga biriktirilgan amaliyot ishini qabul qilib olish, berilgan topshiriqni bajarish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

Ikkinci hafta amaliyot bevosita OTMdak tashkil etilishi mumkin. Unda amaliyot topshiriqlari bajariladi va amaliyot obyektlarida amalga oshirilgan faoliyat hisobotlari shakllantiriladi.

O'quv-tanishuv amaliyotning maqsadi – 60610200 - Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalar tomonidan umumkasbiy va mutaxassislik fanlaridan I-bosqichda olgan nazariy bilimlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash.

Amaliyotning asosiy vazifalari:

- Talabalarning "Ta'lim yo'nalishiga kirish" va "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" kurslarini o'rghanishda olgan bilimlarini amalda mustahkamlash;
- Korhona (muassasa, tashkilot va h.k.) bilan tanishish va faoliyatini o'rghanish;
- Korhona (muassasa, tashkilot va h.k.) axborot texnik vositalar bilan tanishish va ularning texnik tavsiyini o'rghanib, ma'lumotlarni rasmiylashtirish;
- Tayyorlangan ma'lumotlar asosida umumiy hisobotni jamlash, tegishli amaliyot hujjatlarini rasmiylashtirish;
- Mehnat muhofazasini tashkil etish bilan tanishtirish.

Amaliyotni tashkil etish

Amaliyot o'tkazish ob'ektiga tarkibiga axborot kommunikatsiya tizimlari mavjud bo'lgan va tegishli amaliyot shartnomalari tuzilgan bareha korhona, tashkilot, muassasa va boshqalar kiradi. Jumladan, axborot tizimlari va texnologiyalari mavjud sanoat ishlab chiqarish korxonaları, dasturiy maxsulotlar va xisoblash texnikasini apparat vositalarini ishlab chiqish, joriy etish korxonaları, ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini texnikaviy ta'minlash vositalarini yaratish markazlari, loyixaviy-konstrukturlik, foydalaniш va servis xizmat ko'rsatish, tashkiliy-boshqaruв, ilmiy-tadqiqot, konsalting xizmati obyektlari hamda ta'lim muassasaları (umumiylar va o'rta maxsus, kasb-hunar talimi tizimi).

Amaliyot o'tish davrida vaqt taqsimoti (2 xatta - 12 kun) quyidagicha:

- xavfsizlik texnikasi bo'yicha ko'rsatmalar olish, ichki tartib qoidalar va korxona (muassasa, tashkilot) bilan umumiy tanishish - 1 kun;
- korxona (muassasa, tashkilot) ning asosiy ish joylarida ishlash - 9 kun;
- hisobot ma'lumotlarni jamlash va tayyorlash - 1 kun;
- amaliyot hisobotni himoya qilish -1 kun.

2.2. O'quv-tanishuv malakaviy amaliyotida Microsoft Word dasturida hujjatlarni qayta ishlash

Talabalar malakaviy amaliyot davoming dastlabki bosqichida ish faoliyati uchun zarur bo'ladigan hujjatlarni Microsoft Word dasturida yaratish va ularni taxrirlashni o'rGANADILAR.

Malaka amaliyoti topshirig'i: Malakaviy amaliyotda Microsoft Word dasturida sohaga oid normativ xujjalarni tayyorlash.

Ishni bajarish bosqichlari: Microsoft Word dasturida normativ xujjalarni tayyorlashni o'rGANISH Ma'lumotlarni saralash. Hujjatni chop etishga tayyorlash.

Microsoft Word matn muharririni ishga tushirish

Microsoft Word matn protsessorini *Программы (Programs)* yoki *Мой компьютер (My computer)* oynasi yordamida ishga tushurish mumkin. Menyudan

Microsoft Word ni ishga tushirish uchun quyidagi amallar bajariladi: *Hyek (Start)* tugmasi bosiladi. *Программы (Programs)* menyusida *Microsoft Word* tanlanadi va sichqoncha tugmasi bosiladi.

Mo‘i kompyuter (My computer) oynasi yordamida *Microsoft Word* dasturini ishga tushurish quyidagicha amalga oshiriladi (2.1-rasm).

Mo‘i kompyuter (My computer) nishonida sichqoncha tugmasi ikki marta bosiladi.

Diskda saqlanayotgan fayl va papkalar ro‘yxatini chiqarish uchun *Mo‘i kompyuter (My computer)* oynasida *Disk C (Drive C)* nishonida sichqoncha tugmasi ikki marta bosiladi.

Winword papkasi topilib, unda sichqoncha tugmasi ikki marta bosiladi.

Microsoft Word ni ishga tushirish uchun *Winword.exe* dasturiy faylidida sichqoncha tugmasi ikki marta bosiladi.



2. 1-rasm. *Microsoft Word* dasturi oynasi

Matn muharriri – turli hujjatlar yaratish uchun (masalan, xat, hisobot) matnga ishllov beruvchi dasturdir. *Microsoft Word* matnlarni kiritish, tahrirlash va formatlash imkonini beradi. Bu dastur yordamida hujjatga tasvirlar, jadval va diagrammalar qo‘yish, orfografiq va grammatik xatoliklarni avtomatik ravishda

to‘g‘irlash mumkin. *Microsoft Word* hujjatni yaratish va tahrirlashni sezilarli ravishda soddalashtirish imkoniyatiga ega.

Ko‘p qo‘llaniladigan ayrim funksiyalarning qisqacha bayoni

1. Matnni kiritish jarayonida kursov satr oxiriga kelganda, *Microsoft Word* avtomatik ravishda navbatdagi satrga ko‘chiradi. Shu sababli *Enter* klavishini bosish shart emas (yangi abzasdan boshlash va bo‘sh satr yaratishdan tashqari).

2. Agar matn kiritishda xatolikka yo‘l qo‘yilsa, avtokorreksiya funksiyasi uni avtomatik ravishda to‘g‘irlaydi, orfografiyanı tekshirish funksiyasi noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni, e‘tiborni qaratish va to‘g‘irlash uchun qizil to‘lg‘inli chiziq bilan ajratadi.

3. *Microsoft Word* matnni jadval ko‘rinishida tasvirlash imkoniyatiga ega. Agar jadval senli ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, uni oson diagramma ko‘rinishida tasvirlash imkoniyatiga ega.

4. Qo‘srimcha ko‘rish holati hujjatni chop qilishdagi shaklini ko‘rish imkonini beradi. Bundan tashqari, chop qilishdan avval o‘zgartirishlar kiritish uchun bir vaqtida bir necha varaqni tasvirlash imkonini beradi.

Dastur bir necha foydali funksiyalarni ham taklif qiladi.

1. *Автоматизм* - foydalilanadigan so‘z, ifoda yoki rasmlarni saqlash uchun.

2. *Стили* - formatlar to‘plamini o‘zlashtirish va saqlash uchun.

3. *Снятие* - etiketka va konvertlarni chop qilish, seriyali xatlar yaratish uchun.

4. *Макросы* - tez-tez qo‘llaniluvechi buyruqlarni bajarish uchun.

5. *«Мастера»* - professional jihozlangan hujjatlar tayyorlash uenun.

MsWord uskunalar paneli

Главная (bosh) menyusi - bu Word dasturi uchun asosiy menu hisoblanib, asosan bunda matn formati yani shrift o‘lehamlari, rangi, stil, joylashgan o‘rnii, satrlar o‘rtasidagi intervallar va hakozolar o‘zgartiriladi (2.2-rasm).

Главная menyusi quyidagi qismlardan iborat: Buferli almashtirish (Bufer obmena), Shrift, Abzats, Stil (Stili)

2.2 - rasm. Uskunalar paneli

Buferli almashtirish (Буфер обмена) - bu matnni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, matnni kesib (olib) tashlash va matn formati bo'yicha obraz olish uchun ishlatalidi (2.3 - rasm).

Microsoft Word dasturi uskunalaridan foydalanganda birinchi navbatda matnning kerakli maydoni belgilab olinadi. Bunda kursor belgilanish kerak bo'lgan matn boshiga olib kelinadi va sichqonechaning chap tugmasini bosib turgan holda sichqoncha matn bo'ylab harakatlantiriladi.

Belgilanish paneli

Demak matnni ko'chirib olish uchun yoki olib tashlash uchun uni belgilash lozim. Buferli almashtirish (Bufer obmena) yordamida matnlarni ko'chirib olishda "Копировать", olib tashlashda "Вырезать", ko'chirilgan matnni biron yerga qo'yishda "Вставить" tugmalaridan foydalanamiz.


2.3 - rasm. Buferli almashtirish bo'limi

Masalan "Avtobiografiya" bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda quyidagi ketma-ketlikdan foydalanamiz.

Avtobiografiya so'zini belgilanadi (sichqoncha yordamida) Buferli almashtirish bo'limidan "Копировать" tugmasi bosiladi Kursor matn ko'chirilmoqchi kerak bo'lgan joyga olib boriladi

Buferli almashtirish bo'limidan "Вставить" tugmasi bosiladi O'z navbatida "Avtobiografiya" so'zini olib tashlashda shu so'zni belgilab, buferli almashtirish bo'limidan "Вырезать" tugmasi bosiladi. Yoki klaviaturadan "delete" yoki "backspace" tugmalarini bosiladi.

Shrift - bo'limi kiritilgan matn formatini o'zgartirish uchun xizmat qiladi. Quyidagi rasmida shrift bo'limidagi bazi tugmalar vazifasi keltirilgan (2.4 - rasm).




2.4 - rasm. Shrift bo'limi

Kiritilgan matn shrift o'lehamini (temasini) o'zgartirish uchun quyidagi ketma-ketliklar amalga oshiriladi. Matn belgilanadi


Sichqoncha ko'rsatkichini "shrift o'lehamini o'zgartirish" ("shrift temasini o'zgartirish") tugmasiga olib boramiz va pastga qarab turgan strelkan'i bosamiz. Paydo bo'lgan sonlar (temalar) menyusidan kerakli bo'lgan o'leham (tema-masalan Arial) tanlanib, sichqonchaning chap tomoni bosiladi. O'z navbatida **Ж** tugmasi bilan matnni qalinalashtirish, **К** matnni kursivlashtirish va **Ч** tugmasi yordamida matn tagiga chizish mumkin. Matn (fon) rangini o'zgartirish uchun quyidagi ketma-ketliklar bajariladi:

Matn belgilanadi. Sichqoncha ko'rsatkichini "matn rangini o'zgartirish" ("fon rangini o'zgartirish") tugmasiga olib boramiz ya pastga qarab turgan strelkan'i bosamiz va quyidagi rasm paydo bo'ladi (2.5-rasm).
No 4/6284(1)
Namangan sh., I.Karimov hotel




2.5-rasm. Matn va fon rangini o'zgartirish

Kerakli bo'lgan rang tanlanadi va sichqonchaning chap tugmasi bosiladi. Matn ustida bajarilgan barcha amallarni olib tashlash uchun shrift bo'limidan "formatni tozalash - очистить формат" tugmasidan foydalaniлади (2.6-rasm).



2.6-rasm. Formatni tozalash (очистить формат) darchasi

Abzat - bu bo'limdan foydalangan holda matnni satr bo'yicha siljitim, raqamlash va markerlash, fon rangini o'zgartirish va granitsa hosil qilish mumkin (2.7- rasm).



2.7 - rasm. Abzats bo'limi

Abzats bo'limidan foydalangan holda matnni satr bo'yicha satning chap, o'rta va o'ng tomonlarida joylashtirish mumkin (2.8 - rasm)

Chapdan tekislana不得已�ан matn

Markazdan tekislana不得已�ан matn

O'ngdan tekislana不得已�ан matn

2.8 - rasm. Standart abzatsdan foydalanish

Matnni satr bo'yicha abzats kattaligiga siljitim uchun 2.7 - rasmdan "kursoni siljitim" tugmalaridan foydalananamiz. Bunda kursov satrning kerakli joyiga olib boriladi va maqsadga muvofiq kursorni chapga yoki o'tiga abzats kattaligiga siljitim mumkin. Matnlarm markerlash va raqamlash qiyidagi ketma - ketlik yordamida amalga oshiriladi.

Maqsadga muvofiq marker yoki raqamlash turini tanlanadi (2.9- 2.10-rasmlar).



2.9-rasm. Markerlash menyusi

Kursor turgan joydan avtomatik ravishda marker yoki raqamlash boslanadi. Har bir satrga kerakli matn kiritiladi va “Enter” tugmasi bosilgandan keyin raqamlash yoki markerlash avtomatik holda davom etadi




Markerlash yoki raqamlashdan chiqib ketish uchun oxirgi satrga hech narsa yozilmasdan “Enter” tugmasi bosiladi

Satrlar e'tasidagi intervalni sozlash uchun Abzats bo'lidan “interval” tugmasidan foydalanamiz. Bunda matn belgilanadi va intervalga kirib kerakli kattaligi tanlanadi. Standart holda satrlar orasidagi interval 1.15 interval ga teng bo'ladi (2.11-rasm).



2.11-rasm

Граница- satrn (yoki bir nechta satrn) rasmiga o'llish uchun ishlataladi (2.12-rasm).



2.12-rasm. Granitsa menyusi


O'z navbatida sahitoning belgilangan maydoniga rang (fon) berish uchun “Zalivka” tugmasidan foydalaniadi. va menyudan mos rang tanlanib sichqonchaning chap tomoni bosiladi.

Stil (Стил) – bo'lindida matn uchun umumiy bo'lgan stil berish mumkin. Bunda stil menyusidan kerakli bo'lgan stil tanlanadi va sichqonchaning chap tugmasi bosiladi (2.13- rasm).



2.13 - rasm. Stil menyusi

Taxrirlash (Редактирование) – matn bo'yicha so'zlarni qidirish, ularni biron bir so'z bilan almashtrish uchun ishlataladi (2.14 – rasm).



2.14 - rasm. Taxrirlash menyusi

Qidirish 2 xil amalga oshiriladi (2.15 – rasm).

Oddiy qidirish.

Kengaytirilgan qidirish.



2.15 – rasm. Kengaytirilgan qidiruv menyusi

Oddiy qidirishdan foydalanadigan bo'lsak, "Найти" tugmasini bosamiz va dasturning chap tomonida hosil bo'lgan "Навигация" qidirmoqchi bo'lgan so'zni kiritamiz. Agar biz qidirayotgan so'z matnimizda bo'lsa, so'z sariq rang bilan belgilanib ko'rsatiladi. Matnda shu so'zdan nechta qatnashgan bo'lsa hammasi sariq rangda belgilanib ko'rsatiladi.

Kengaytirilgan qidirish – qidirish bilan birga, topilgan so'zni biron bir so'z bilan almashtirish imkonini beradi va o'z navbatida matni bo'yicha o'tishlarni amalga oshirish mumkin (2.16-rasm).

Qidirish:



qidirish

almashtirish

belgilash

2.16 - rasm. Qidirish (Kengaytirilgan qidiruv bo'yicha)

Almashtirish:



2.17 - rasm. Almashtirish (Kengaytirilgan qidiruv bo'yicha)

Yuqorida rasmida ko'rsatilganidek, "Заменить" bo'limidan "Найти" maydoniga qidurilmoechi bo'lgan so'z (son, simvol) kiritiladi va "Заменить на" maydoniga qidirilgan so'z o'rniغا kiritmoqchi bo'lgan so'z (son, simvol) kiritiladi va "Заменить все" tugmasi bosiladi. Masalan matnimizdag'i "777" sonini "888" soni bilan almashtirmoqechniz. Bunda "Найти" maydoniga 777, "Заменить на" maydoniga 888 kiritiladi va "Заменить все" tugmasi bosiladi (2.18-rasm).

O'tish:



2.18- rasm. O'tish (Kengaytirilgan qidiruv bo'yicha)

Matn bo'yicha o'tish yuqorida rasmida ko'rsatilgan kategoriylar (Страница, Раздел, Сторка) bo'yicha amalga oshiriladi. Masalan 7 – sahfaga o'tmoqchi bo'lsak, "Обект перехода" dan "Страница" kategoriyasini tanlaymiz va, "Введите номер страницы" maydoniga 7 raqamini kiritamiz va "Перейти" tugmasini bosaniz.

Microsoft Word dasturida "Вставка" menyusi bilan ishlash. Microsoft Word dasturining "Вставка" menyusi matnga qo'shimchalar kiritish uchun

ishlatiladi (2.19 – rasm). Masalan yangi sahifa yaratish, sahifaga rasm qo'yish, diagramma kritish, sahitani raqamlash va shular jumlasidandir. Beteavka menyusi quyidagi bo'limlardan iborat:

Sahifalar (Страницы)

Jadvallar (Таблицы)

Illyustratsiya

O'tish (Ссылка)

Kolontitul (Колонтитулы)

Matn (Текст)

Qo'shimcha simvollar (Символы)




2.19 - rasm. Beteavka menyusi uskumalar paneli

Sahifalar – bo'limi titul saxifasini kiritish uchun va yangi sahifa yaratish uchun ishlatiladi (2.20 - rasm).



2.20 - rasm. Sahifa yaratish menyusi


“Titul sahifa yaratish” tugmasi asosan xujjat uchun bosh sahifa yaratish uchun ishlatiladi. Bunda “Titul sahifa yaratish” menyusidan bosh sahifa tanlanadi va sichqonchaning chap tomoni bosiladi (2.21 – rasm).



2.21 - rasm. Titul sahifa yaratish

Yangi sahifa yaratish “Пустая страница” tugmasini bosish bilan amalga oshiriladi.

Illyustratsiya – bo'limi sahifaga rasm, figura va diagramma qo'yish uchun ishlatiladi (2.22-rasm).




2.22 - rasm. Illyustratsiya menyusi

Sahifaga rasm qo'yish quyidagi ketma – ketlik yordamida amalga oshiriladi (2.23 – rasm).

- ✓ cursor rasm qo'yish kerak bo'lgan joyga qo'yiladi;
- ✓ illyustratsiya bo'limidan “risunok” tugmasi bosiladi;
- ✓ hosil bo'lgan yangi oynadan sahifaga qo'ymoqchi bo'lgan rasin tanlanadi;

✓ “Вставть” түгмаси босилади.



2.23- rasm. Sahifaga rasm qo'yish

Sahifaga kartinka qo'yish davomida rasm qo'yishdan farqli ravishda dasturning o'zida bor bo'lgan standart rasmlardan foydalilanadi. Agar biz “Картинка” түгмасini bosadigan bo'lsak, dastur oynasining o'ng tomonida qiyidagi menyu hosil bo'ladi.

Колонтитул, саҳифаларни рақамлани


Microsoft word dasturida har bir sahifani nomlash va raqamlash mumkin Buning uchun “Бетавка” menyusiga “Колонтитуле” bo'limidan foydalanimiz (2.24 – rasm).



2.24 - rasm. Kolontitul menyusi

Kolontitul – bu sahifaning eng yuqori yoki pastgi qismiga kiritiladigan o'zgarmas matndir. 2.25 - rasmda ko'rsatilganidek, “Верхний колонтитул” –

sahifalarning yuqori qismiga kolontitul kiritish uchun ishlataladi. Bu sahifaning umumiy mavzusi.



2.25 - rasm. Sahifa yuqori qismiga kolontitul qo'yish

2.25-rasmda ko'rsatilgan “Ведите текст” maydoniga matn kiritamiz (masalan F.I.O) va “Верхний колонтитул” түгмасini ikki marta bosamiz.



Sahifaning turinay mavzusi be lib xizmat qildi. Aza kolontitul menjasini bosadigan bo'lsak unga tegishli:

“Нижний колонтитул” – sahifalarning pastki qismiga kolontitul kiritish uchun ishlataladi. Masalan bu kolontitulga sahifa matnida qatnashgan ba'zibir lug'at talab etadigan so'zlarning qisqacha ma'nosi yozib qo'yilishi mumkin yoki foydalananigan adabiyotlarni ham kiritib qo'yish mumkin. Ishlash ketma - ketligi “Верхний колонтитул” ga matn kiritish bilan bir xil amalga oshiriladi. Sahifani raqamlashda “Номер страницы” түгmasidan foydalanimiz.

Qoshimcha simvollar kiritish. Qoshimcha simvollar kiritish Betavka menyusining “Simvol” bo'limi orqali amalga oshiriladi (2.26 – rasm).



2.26- rasm. Simvol bilan ishlash bo'limi

Bu yerda “Simvol” tugmasi klaviaturada mavjud bo'lmagan simvollarni kiritish imkonini beradi. Masalan Σ , Ψ , ∞ , a , β , π


Simvollarni kiritish uchun “Simvol” түгmasini bosamiz va paydo bo'lган simvollardan birini tanlab sichqonechaning chap tugmasini bosamiz (2.27- rasm).

Eshmatov Botir Bahodirovich

Ma lumotn nomi	
3 oy davomida	
o‘siz janrang	
fotogrammat	
elektron	
ko‘numda	
masnaviy	
Loyihalar	

2.27- rasm. Simvol kiritish menyusi

Agar boshqa simvollarini ham kiritmoqchi bo‘lsak “Другие символы” tugmasidan foydalananamiz. Paydo bo‘lgan menyudan kategoriyalar bo‘yicha simvollar tanlanadi va “Вставить” tugmasi bosiladi (2.28- rasm).



2.28- rasm. “Другие символы” darchasi

II Topshiriqlar

1. Quyidagi shablon bo‘yicha o‘z malumotnomasi obektivka jingizni yaratting

1965-yil 67 noyabrdan
O‘zbekiston Milliy universiteti milliy g‘oya va ijtimoiy
fakulteti kafedrasi mudimi

Tug‘ilgan yili:
14.09.1946

Millat:
o‘zbek

Ma lumoti:
dax

Ma lumoti bo‘yicha mutaxassisligi:
Ilmiy darajasi:

fakultet fakultet dekton

Qayri chez qillari bilan:
tuzuvchiga foydalan

Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganini (qo‘saga):
to‘q

Nalq deputatdiri, respublika, viloyat, shahar va tumon Kengashde deputatimi yoki boshqa tayinadigan
organlarning a’zo mi ni (to‘hq ko‘rnaliishi lezin):
to‘q

Tug‘ilgan joyi:
Qarqadarsu viloyati, Nishon qishari

Parvoviyligi:
100%

Tanomlangan:
1971-yil Toshkent davlat universiteti

fakultet

Ilmiy unvoni:
professor

MEHNAT FAOLIYATI

- 1964-1965-yil - Tashkent davlat universiteti studenti
- 1965-1971-yil - Toshkent davlat universiteti studenti
- 1971-1975-yil - Milliy darajalarning milliy qurʼani
- 1975-1976-yil - Toshkent davlat universiteti studenti. Elektron o‘qituvchi
- 1976-1979-yil - Toshkent davlat universiteti fakultet. Elektron o‘qituvchi
- 1979-1983-yil - Toshkent davlat universiteti fakultet elektron o‘qituvchi dekan
- 1983-1991-yil - O‘zbekiston Respublikasi IJH, shahar va viloyat. Toshkent shahar universiteti kafedra
- 1991-1993-yil - O‘zbekiston Respublikasi IJH, shahar va viloyat akademik professor
- 1993-1996-yil - O‘zbekiston Milliy universiteti chumon fakulteti kafedrasi mudimi
- 1996-yil - O‘zbekiston Milliy universiteti milliy g‘oya va ijtimoiy fakulteti kafedrasi mudimi

IZOH 1. O‘shtiif Turner New Roman 11. Mif Word doc formatida

2. Eshmatov Bonyarxon Bo‘libzoda. 1965-yil 14 noyabr. O‘shtiif Turner New Roman 11. Mif Word doc formatida

Eshmatov Bony Bahodirovich. Doz.

3. Sifatlar ega boledi. 1965-yil 14 noyabr. O‘shtiif Turner New Roman 11. Mif Word doc formatida

4. Ma lumotnomasi ga qarangibor. 1965-yil 14 noyabr. O‘shtiif Turner New Roman 11. Mif Word doc formatida

5. FISH. Kechalar bo‘lmay uchunidan yozishni. 1965-yil 14 noyabr. O‘shtiif Turner New Roman 11. Mif Word doc formatida

6. Ma lumotnomasi bilan nashrsini done edilib kerak

7. Mehnat foydani bo‘shtasini. 1965-yil 14 noyabr. O‘shtiif Turner New Roman 11. Mif Word doc formatida

8. Fazoliyatlarni bildirishiga o‘shtasini. 1965-yil 14 noyabr. O‘shtiif Turner New Roman 11. Mif Word doc formatida

9. Yozishning va qaytarilgani haqidagi shartlarini ma lumotnomasining 10-sentabriga o‘shtasibosib

Eshmatov Botir Bahodirovichning yaqin qariudotlari haqida
MA LUMOT

Qaridotligi	Familiya, ismi va otasining nomi	Teg uzoq sifat va yoki	Ich joy va lavezumi	Turuq joyi
Otar	Abdullaev To'raqul	1916 yil Qo'shig'anovcha Nuzoza rasmasi	1999 yilda valer etibar O'zbekiston o'qituvchi	
Otar	Abdullaeva Azeddinova Mu'minov	1923 yil Qo'shig'anovcha Nuzoza rasmasi	Ponovda yubini	Qo'shig'anovcha Nuzoza rasmasi Nuzoza qo'shig'anovcha Tug'iluv
Umar	To'raqul Chaxqul To'raqulovich	1912 yil Qo'shig'anovcha Nuzoza rasmasi	Qo'shig'anovcha Nuzoza rasmasi yubini	Qo'shig'anovcha Nuzoza rasmasi Nuzoza qo'shig'anovcha Tug'iluv
Singha	Abdullaeva Tukmanoy To'raqulova	1961 yil Qo'shig'anovcha Nuzoza rasmasi	Tekhnika-savdo-tehnologiya mashriq dasturi	To'raqulova Omarova Nuzoza Bu'limo dasturi Tug'iluv shaxsida
Turmonib o'rioni	Abdullaeva Frederika Janina Georgiana	1911 yil Tajikiston Respublikasi Sipotechshahar	Teknik avtomobilgach mashinari kursi o'qituvchi	To'raqulova Omarova Nuzoza Tajikiston Buy Xorazma
O'g'h	Abdullaev Tosur Berdikulovich	1978 yil Gruziya Respublikasi Tbilisi shahri	Teknik avtomobilgach mashinari yubini	To'raqulova Omarova Nuzoza Tajikiston Buy Xorazma
Qiz	Abdullaeva Dilshad Berdikulova	1974 yil Gruziya Respublikasi Tbilisi shahri	Uz bekor	To'raqulova Omarova Nuzoza Tajikiston Buy Xorazma
Qaynokasi	François George Azizovich	1931 yil Roumania Federativ Sovet Respublikasi	1999 yilda valer etibar yubini	
Qaynokasi	Ural Latifa Stepanova	1937 yil Uzbekiston Respublikasi Zayapo - shahar	2000 yilda valer etibar yubini	
ZARUR	To'xtat	Nuzoza'n		
1. Qaridotli familialni qaridot surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot	O'g'a Tumushko To'raqul	Bo'sha Aks Xamoshish Mazhar Fazilov Nuzoza Shingano	O'g'a Fazilov Nuzoza	Bo'sha A.E. Nuzoza
2. Qaridotli, qaridot surʼuniga qaridot	1974 yil Tajikiston Respublikasi Nuzoza rasmasi	1975 yil Fergana viloyati Co'xon hujra	1975 yil Fergana viloyati Co'xon hujra	1976 yil Fergana viloyati
3. Qaridotli, qaridot surʼuniga qaridot Ma'lumotlar surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot	Fazilov o'stiga Xamoshish surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot surʼuniga	Fazilov o'stiga Xamoshish surʼuniga qaridot surʼuniga	MIF surʼuniga	1999 yil o'stiga o'qituvchi
4. Matnni surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot surʼuniga	1977 yilda valer etibar O'zbekiston qaridot surʼuniga	Fazilov o'stiga Xamoshish surʼuniga qaridot surʼuniga	Vafot etibar yubini	Matnni
5. Matnni surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot surʼuniga qaridot surʼuniga	Abdullaev O'stiga Antonovmasi Ishakova qaridot surʼuniga	Buxoro viloyati Qorchi qurʼumi Engilchayliq dasturi	To'rik Chidoren 18.14.07	Buxoro viloyatida

2.3. Microsoft Excel dasturi yordamida o'quv-tanishiv malakaviy amaliyoti

ob'yekti jadvallarini yaratish va qayta ishlash

Malakaviy amaliyot o'tashda zarur bo'ladigan Microsoft Excelda sonli ma'lumotlar bilan ishlashni o'rganish, "Поник репення" funksiyalari orqali masalalarni yechishni o'rganish, Excel dasturida ma'lumotlar bazasini boshqarish bilan tanishish, ma'lumotlarni saralash, hujjatni chop etishga tayyorlash masalalari bilan tanishib chiqamiz.

Sonli ma'lumotlar bilan ishlashni bir necha ketma-ket mantiqiy bo'laklarga bo'laimiz.

- jadvalni hosil qilish;
- jadvalni to'ldirish;
- ma'lumotlarni biror belgisi bo'yicha saralash.

Jadvalni hosil qilish.


Quyidagi jadvalni hosil qiling va jadval sarlavhasi ikki qatordan iboratligiga e'tibor bering.

2.1-jadval

№	Bo'lim	Mahsulot nomi	O'lechov birligi	Kirim		Chiqim		Qoldiq	
				Kirim narxi	Kirim soni	Chiqim narxi	Chiqim soni	Qoldiq narxi	Qoldiq soni
1									
2									
3									

- ✓ Matnni ikkinchi qatordan boshlab kiritish qulay. E'tibor bergan bo'lsangiz «Kirim» bo'limi ikkitita ustundan iborat. Bunda Yuqoridagi ko'nikmalardan foydalanan kataklarni birlashturib, markazga tekislagan holda hosil qilamiz. Xuddi Shu taxlit «Chiqim» va «Qoldiq» ustunlarini ham to'ldiring.
- ✓ Sarlavhanai ikkinchi qatorini belgilab oling va markaz bo'yicha tekislang.
- ✓ Jadvalni butun ishehi varaq bo'yicha joylashtirish uchun ba'zi kataklarni 90° ga burish kerak. Buning uchun o'sha kataklarni belgilab **Формат ячеек**

buyrug'idan **Выравнивание** bo'limiga o'ting, **Ориентацию текста** dan kerakli o'lchamni o'tnating va albatta **Переносит по словам** ga bayroqcha o'tmating (vertikal ravishda tekislashga **По нижнему краю** ni qo'ying) 2.29-rasm.



2.29-rasm. Yacheykadagi ma'lumotlarni tekislash oynasi.

- ✓ Boshqa kataklarni vertikal ravishda markazga **Формат ячеек** buyrug'idan foydalanib tekislang.
- ✓ Jadvalga chegaralarni **Формат ячеек** buyrug'idan Granitsa bo'limi orqali qo'ying).
- ✓ Kataklarga pullik o'lcham (denejniy format) ni (**Формат ячеек** buyrug'ining **Число** bo'limi orqali o'tnating).
- ✓ Jadval qatorlarini (№ ustun) to'ldiruvchi markerdan foydalanib raqamlab chiqing.
- ✓ «Qoldiq soni» ustuniga formulani qo'ying («Kirim soni» ayiruv «Chiqim soni») va «Qoldiq narxi»ga («Qoldiq soni» ko'paytiruv «Chiqim narxi»). Bu formulalarni pastga jadval bo'ylab tarqating.

Jadvalni to'ldirish

Qanday mahsulotlar bilan savdo qilishingizni va do'kon qaysi bo'limlardan iboratligini aniqlab oling.

- ✓ Ma'lumotlarni jadvalga bo'limlar bo'yicha va kelib tushish vaqt bo'yicha kriting.
- ✓ «Qoldiq» bo'limidan boshqalarini to'ldiring.

- ✓ Oxirgi qatorni bo'sh qoldiring, echunki bu qatorda formula joylashadi.
- ✓ Ma'lumotlarni Shunday kritingki bir bo'limdagi xar xil mahsulotlar mayjud bo'lib, noz qoldiqli mahsulotlar mayjud bo'lsin (hammasi sotilgan).

2.2-jadval

Nr	Bo'lim	Mahsulot nomi	O'nechov birligi	Kirim summasi	Kiritish soni	Chiqim summasi	Chiqim soni	Qoldiq soni	Qoldiq summasi
1	Sut mahsulotlari	Pishloq	Kg.	650	100	850	80	20	17000
2	Go'sht mahsulotlari	Kolbasa va kolbasa mahsulotlari	Kg.	1100	200	1200	150	50	60000
3	Go'sht	Baliq	Kg.	1200	100	1400	50	50	70000
				650	100	850	80	20	17000
				1100	200	1200	150	50	60000
				1200	100	1400	50	50	70000
				650	100	850	80	=B1-D1	=C1+E1
				1100	200	1200	150	=B2-D2	=C2+E2
				1200	100	1400	50	=B3-D3	=C3+E3

Endi siz alohida yozuvlardan iborat o'z jadvalningizga ega bo'ldingiz. Oxirgi yozuvga o'tib uni to'ldirmg. Bunda bir oynadan ikkinchisiga o'tishda Tab tugmachasidan foydalanish qulay. Oxirgi yozuvni to'ldirib Enter tugmachasini bossangiz yangi darchaga ega bo'lasiz. Kiritilgan yangi ma'lumotlar jadvalda birdaniga aks etadi.

Bir necha yangi yozuvlarni kriting va Закрыть туннели босинг.

Ma'lumotlar ustida amallar

Biz yuqorida mahsulotlarni kelib tushishi bo'yicha jadvalni hosil qildiq. Agar bo'limlardagi mahsulotlar bo'yicha jadval hosil qilish kerak bo'lsa ma'lumotlarni saralash (сопроповка) ga to'g'ri keladi.

Jadvalni sarlavhasiz belgilab oling va **Данные-(Сортировка...)** buyrug'ini bering.

Hosil bo'lgan darchadan «Сортировать по» bo'limidan «Бо'лим»ni tanlang va "По возрастанию" tanlang (bunda jadvaldag'i hamma bo'limlar alfavit bo'yicha joylashadi).

Xuddi shunday bo'lim ichidagi mahsulotlarni ham alfavit bo'yicha saralash uchun keyingi «Затем по» bo'limda ham shu amallarni bajaramiz (2.30-rasm).

Ma'lumotlarni saralash.

- ✓ Jadvalni sarlavhasiz belgilab oling.
- ✓ **Данные (Фильтр... АвтоФильтр ынугури танланг.**
- ✓ Belgilashni yana xuddi shu taxlit belgilashi olib tashlang.



2.30-rasm. Tariiblash oynasi.

Optimallashtirish modellari texnik, iqtisodiy va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlari masalalarini yechishda qo'llaniladi. Uning maqsadl aniq Shartlar optimallashtirilgan (Maksimum foydaga erishish va minimum xarajat qilish) balanslashtirilgan yechimni olishdan iborat.

Excel dasturida optimallashtirish masalalarini yechish uchun quyidagi buyruqdan foydalilanamiz: «Данные» - «Анализ» - «Поиск решения»

Поиск решение бо'limini sozlash uchun Файл менюсининг ПАРАМЕТРЫ бо'limiga kiramiz (2.31-rasm).



2.31-rasm. Excel ning ПАРАМЕТРЫ бо'limi

Надстройки бо'limida Перейти тугмасini boshladi (2.32-rasm).



2.32-rasm. Excel ning Надстройки бо'limi

Natijada quyidagi darcha hosil bo'ladi (2.33-rasm). Undan Поиск решения тугмачасини yogamiz.



2.33-rasm. Excel ga qo'shimcha funksiyalar qo'shish.

Natijada Данните меню bo'limining Анализ қисмida Пойсек решение tugmachasi hosil bo'ladi (2.34-rasm).

2.34-rasm. Excel ga qo'shimcha funksiyalarning qo'shilganligi.

«Пойсек решения» sozlevchisi yordamida optimallashtirllagan masala yechimini ko'rib chiqamiz.

